

NYU-YORKDAGI IMMIGRANTLAR UCHUN RESURLAR

IMMIGRANTLIK MAQOMINGIZDAN QAT'I NAZAR, NYU-YORK SHAHRI SIZNI QO'LLAB-QUVVATLASHGA TAYYOR.



Immigrantlik masalalari bo'yicha huquqiy yordam

Immigrantlik masalalari bo'yicha bepul va ishonchli huquqiy yordam olish uchun **800-354-0365** raqamiga dushanbadan jumagacha soat 9:00 dan 18:00 gacha qo'ng'iroq qiling.



Nyu-York shahri shaxsiy guvohnomasi

IDNYC uchun ariza topshiring, bu 10 yosh va undan katta barcha Nyu-York aholisi uchun bepul munitsipal shaxsni tasdiqlovchi karta hisoblanadi. Onlayn uzaytirish yoki ariza topshirish uchun qabulga yozilish maqsadida **311** raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki **nyc.gov/idnyc** sahifasiga kiring



Ingliz tili kurslari

Istalgan vaqtda va istalgan joyda **bepul ingliz tili** darslaridan foydalaning. Batafsil ma'lumot olish uchun **wespeaknyc.cityofnewyork.us** sahifasiga tashrif buyuring.



Sog'liqni saqlash

NYC Health + Hospitals (H+H) dasturi (Nyu-York shahri aholisi uchun sog'liqni saqlash xizmatlari) shoshilinch yordam, asosiy tibbiy xizmat, profilaktik ko'riklar, emlash va boshqa ko'plab xizmatlarni taqdim etadi. **Sizga eng yaqin markazga yo'naltirish uchun 1-844-NYC-4NYC (1-844-692-4692) raqamiga qo'ng'iroq qiling.** Tibbiy sug'urta dasturlariga, shu jumladan **NYC Care** dasturiga ro'yxatdan o'tish uchun **646-NYC-CARE (646-692-2273)** raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki **nycare.nyc** saytiga tashrif buyuring



Ruhiy salomatlik

Maxfiy yordam olish va ruhiy salomatlik hamda giyohvandlikni davolash bo'yicha mutaxassislar bilan bog'lanish uchun **888-692-9355** yoki **988** raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki **65173** raqamiga **WELL** matnini SMS orqali yuboring. Nyu-York aholisi Nyu-York shahridagi ruhiy salomatlik xizmatlari bo'yicha ko'p tilli manbalarni taqdim etuvchi **nyc.gov/mentalhealthaccess** saytiga tashrif buyurishi yoki ruhiy salomatlik xizmatlarini topish uchun **nyc.gov/mentalhealthservices** manzilidagi NYC 988 onlayn ma'lumotnomasidan foydalanishi mumkin.



Favqulodda vaziyatlar

Favqulodda holatlarda 911 raqamiga qo'ng'iroq qiling. Favqulodda holat - bu politsiya, o't o'chirish xizmati yoki tez tibbiy yordam tomonidan zudlik bilan yordam talab qilinadigan har qanday vaziyatdir. **Qonunga ko'ra, Nyu-York shahar politsiya departamenti (New York City Police Department) jinoyat qurbonlari, guvohlar yoki yordam so'rab murojaat qilgan boshqa shaxslarning immigratsiya maqomi haqida ma'lumot so'rashga haqli emas.**



Davlat ta'limi

Nyu-Yorkda yashovchi 4 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar davlat maktablarida ta'lim olish huquqiga ega. Ariza topshirish uchun **schools.nyc.gov/fwc** sahifasiga tashrif buyuring yoki **311** raqamiga qo'ng'iroq qiling.



Umumiy resurslar va shahar haqida ma'lumot

Shahar resurslariga kirishingiz kerakmi yoki biror muammo haqida xabar bermoqchimisiz? **311** raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki **portal.311.nyc.gov** saytiga tashrif buyuring



Nyu-York immigratsiya masalalari bo'yicha ishonch telefoni

Biz bilan dushanbadan jumagacha soat 9:00 dan 17:00 gacha ishonch telefoni orqali bog'laning: **212-788-7654** yoki elektron pochta orqali murojaat qiling: **askmoia@cityhall.nyc.gov**



NYU-YORKDAGI IMMIGRANTLAR UCHUN RESURSLAR

IMMIGRATSION MAQOMINGIZDAN QAT'I NAZAR, SIZNING HUQUQLARINGIZ MAVJUD.

Immigratsiya sohasidagi firibgarlikning oldini olish

Agar immigratsiya bo'yicha huquqiy maslahatga muhtoj bo'lsangiz, faqat AQSH Adliya vazirligi tomonidan (Department of Justice, DOJ) akkreditatsiyadan o'tgan litsenziyalı advokat yoki vakilga murojaat qiling. Akkreditatsiyadan o'tgan va tan olingan xizmat ko'rsatuvchilar ro'yxatini nyc.gov/immigrationfraud dan topish mumkin

Immigratsion nazorat bilan bog'liq huquqlar

Nyu-York immigratsiya nazoratini amalga oshirmaydi. Federal immigratsiya xizmati xodimlari sizga murojaat qilsa, ma'lum huquqlarga ega bo'lasiz. nyc.gov/knowyourrights sahifasiga tashrif buyuring yoki immigratsiya huquqi masalalari bo'yicha bepul ishonch telefoniga **800-354-0365** raqami orqali murojaat qiling

Xodimlarning huquqlari

Nyu-York shahri qonuniga ko'ra, siz haq to'lanadigan kasallik ta'tili, eng kam ish haqi, qo'shimcha ish vaqti uchun to'lov va boshqa imtiyozlarga ega bo'lish huquqiga egasiz. Ma'lumot olish uchun nyc.gov/workers sahifasiga tashrif buyuring yoki **212-436-0380** raqamiga qo'ng'iroq qiling

Diskriminatsiya haqida xabar berish

Ta'qib va diskriminatsiya Nyu-York shahrining Inson huquqlari to'g'risidagi qonuniga ko'ra noqonuniy hisoblanadi. Diskriminatsiya haqida xabar berish uchun **212-416-0197** raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki nyc.gov/reportdiscrimination sahifasiga kiring

Oilaviy zo'ravonlikdan himoya

Zo'ravonlikka duch kelsangiz, Nyu-York shahri sizga yordam berishga tayyor. nyc.gov/nychope sahifasiga tashrif buyurishingiz yoki Nyu-Yorkdagi oilaviy zo'ravonlik bo'yicha ishonch telefoniga **800-621-HOPE** raqami orqali qo'ng'iroq qilishingiz mumkin

Ijarachilar huquqlari

Chiqarib yuborish yoki uy egasi bilan bog'liq masalalarni hal qilishda yordam kerakmi? nyc.gov/tenantprotection sahifasiga tashrif buyuring yoki **311** raqamiga qo'ng'iroq qilib, **"tenant helpline" (ijarachi ishonch telefoni)** deb ayting va bepul huquqiy yordam oling

Uy-joyga bo'lgan huquq

Uysiz qolgan holatingizda uy-joy so'rashga haqli bo'lasiz. Boshpana xizmatlaridan foydalanish uchun uysizlar xizmati departamentining (Department of Homeless Services, DHS) maxsus qabul markaziga tashrif buyurib, boshpana xizmatlaridan foydalaning. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun **311** raqamiga qo'ng'iroq qiling

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish

Biznes vakillari bilan muammolarga duch kelyapsizmi? Iste'molchi sifatida sizning muayyan huquqlaringiz mavjud. nyc.gov/consumers saytida shikoyat qoldiring yoki **311** raqamiga qo'ng'iroq qiling